

## QUTURISH KASALLIGI VA UNI OLDINI OLISH

**Murodiljon Mo'minovich Isaqov**

Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi,

terapiya kafedrasи yuqumli kasalliklar fani

o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Quturish (rabies) — bu virusli infektion kasallik bo'lib, odatda yuqtirilgan hayvonning tishlashi orqali odamga yuqadi. Kasallik asosan markaziy asab tizimini zararlaydi va og'ir asoratlar bilan kechadi, aksariyat hollarda esa o'lim bilan yakunlanadi. Quturish virusining asosiy tarqatuvchilari itlar, tulkilar, yarasalar va mushuklardir. Kasallik alomatlari orasida bosh og'rig'i, harorat ko'tarilishi, asabiylashish, suvdan qo'rqish (gidrofobiya) va falaj holatlar kuzatiladi. Quturishni davolash qiyin bo'lgani sababli uning oldini olish juda muhimdir. Oldini olish choralariga hayvonlarga muntazam emlash, odamlarni tezkor tibbiy yordamga murojaat qilish, tishlangan joyni darhol antiseptik bilan tozalash kiradi. Profilaktik emlashlar va sanitariya-ma'rifiy ishlar kasallikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** quturish, virusli infeksiya, asab tizimi, emash (vaksinatsiya), hayvon tishlashi, gidrofobiya, profilaktika, tibbiy yordam, antiseptic, kasallikdan himoyalananish.

Quturish (rabies) — bu odamlar va issiq qonli hayvonlarda uchraydigan o'ta xavfli virusli kasallik bo'lib, markaziy asab tizimini zararlaydi. Kasallik zoonoz xususiyatiga ega, ya'ni hayvonlardan odamga yuqadi. Quturish eng qadimiy va eng xavfli infektion kasalliklardan biri hisoblanadi. Davolanishi juda murakkab bo'lgani sababli, uning oldini olish choralari muhim o'rinn tutadi.

Quturish insoniyatga ma'lum bo'lgan eng qadimiy kasalliklardan biri hisoblanadi. Demokrit, Ksenofont, Aristotel, Gippokrat, Galen, Abu Ali Ibn Sino kabi ulug' siymolar bu kasallik to'g'risida juda ko'plab foydali qo'lyozmalar qoldirganlar. Odamlar quturish kasalligini quturgan itlar tishlashi natijasida kelib chiqishini bиринчи marta eramizdan to'rt asr muqaddam Aristotel aytgan. Lekin bu kasallikni nima qo'zg'atishi, kasallik qanday davolanishi va oldi olinishi haqida hech qanday bilimga ega bo'lmay tibbiyot boshi berk ko'chaga kirib qolgandi. Shunday qiyin vaqtda, insonlar umidsizlikga tushga bir paytda mashhur fransuz olim Lui Paster o'z shogirtlari bilan bu kasallikni o'rganishga, izlanishlar olib borishga astoydil kirishdilar. Izlanishlar olib borish davomida (1881-1888) quturishga qarshi vaksina ishlab chiqdi, hamda it, bo'ri tishlagan odamlarni quturishga qarshi emlashni joriy etgan. Odamlar uchun infeksiya manbai quturgan it, mushuk, bo'ri, bo'rsiq va boshqa hayvonlardir. Kamdan-kam hollarda kasallik quyonlardan, kalamush va sichqonlardan yuquushi mumkin. Kasallik odamlarga quturish kasalligiga chalingan hayvonlar tishlashi, tirnashi, so'laklanishi oqibatida yuqadi. Quturish kasalligiga chalingan odamdan sog' odamga kasallik yuqmaydi. Odam quturish kasalligi uchun "Biologik tupikdir". Kasallikga barcha yoshdagi odamlar beriluvchan bo'ladi.

Patogenezi: Quturish kasalligiga chalingan hayvon odamni tishlaganda (tirnashi, so'lagi oqishi) odam terisining jaroxatlangan qismida so'lakdagi viruslar nerv tolalari bo'yab bosh va orqa miyaga yetib boradi va u yerda ko'payib, chuqur o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa adashgan nerv, tomoq-til va til osti nerv yadrolari ko'proq zararlanadi. Yutish va nafas olishda qatnashadigan muskullarning tortishib qisqarishi, talvasaga tushish, tirishish, qattiq terlash va so'lak oqishi ana shu nervlarning zararlanishidandir. Bosh miyada ko'paygan viruslar nerv tolalari orqali ichki a'zolarga, jumladan so'lak bezlariga o'tadi. Shu sababli quturgan hayvonlarning so'lagida viruslar ko'p bo'ladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> H.B.Saparov "O'ta xavfli yuqumli kasalliklar"

Quturish virusi odatda yuqtirilgan hayvonning tishlashi orqali yoki tirmash, yalash kabi jarohatlar orqali odamga yuqadi. Virus hayvonning so‘lagi orqali tanaga kiradi va asab tolalari bo‘ylab miya tomon harakat qiladi. Asosan itlar, mushuklar, tulkilar, bo‘ri va yarasalar virus tashuvchisi bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, emlanmagan va ko‘chada erkin yuradigan hayvonlar xavf tug‘diradi.

Quturish kasalligining inkubatsiya davri odatda 1 haftadan 3 oyga qadar davom etadi. Birinchi alomatlar umumiy holsizlik, bosh og‘rig‘i, ishtaha yo‘qolishi va harorat ko‘tarilishi bilan boshlanadi. Kasallik rivojlangach, bemorda quyidagi belgilar kuzatiladi:

Asabiylik va qo‘rquv

Suvdan va yorug‘likdan qo‘rqish (gidrofobiya)

Mushaklar tortishishi

Tashqi ta’sirlarga sezuvchanlik oshishi

Falaj holatlar

Hushdan ketish va o‘lim

Kasallikning so‘nggi bosqichida bemor komaga tushadi va yurak yoki nafas faoliyatining to‘xtashi bilan o‘lim yuz beradi. Quturish bilan kasallangan bemorlar odatda 100% halok bo‘ladi.

Quturish kasalligini davolash deyarli imkonsiz bo‘lgani sababli, asosiy e’tibor profilaktikaga qaratiladi. Quyidagi choralar kasallikdan himoyalanishda muhim rol o‘ynaydi:

Hayvonlarni emlash: Uy hayvonlari, ayniqsa it va mushuklar har yili quturishga qarshi emlanishi lozim.

Yovvoyi hayvonlardan ehtiyyot bo‘lish: Begona yoki aggressiv hayvonlarga yaqinlashmaslik, ularni qo‘zg‘amaslik kerak.

Jarohatlangan joyni darhol davolash: Hayvon tishlagan yoki tirnagan holatda jarohat joyini sovun bilan yuvish va antiseptik vositalar bilan tozalash zarur.

Tibbiy yordamga murojaat qilish: Har qanday hayvon chaqishi holatida darhol shifokorga murojaat qilib, quturishga qarshi profilaktik emlash kursini olish kerak.

Aholini xabardor qilish: Aholi orasida kasallik to‘g‘risida tushuntirish ishlari olib borish, ayniqsa bolalarni ogohlantirish muhimdir.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda, quturish kasalligi juda xavfli va halokatli infeksiyalardan biridir. Uni davolash imkonи bo‘lmagani bois, oldini olish choralari har bir inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Uy hayvonlarini vaqtida emlatish, yovvoyi hayvonlardan ehtiyyot bo‘lish va har qanday shubhali holatda shifokorga murojaat qilish orqali ushbu kasallikdan saqlanish mumkin. Sog‘liqni asrash – har birimizning o‘z qo‘limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.B.Saparov “O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar”
2. H.B.Saparov, A.H.Hasenov “Karantin va O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar bo‘yicha qollanma
3. E.I.Musaboyev, A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya”
4. R.E.Giyasova, D.X.Dadamuhamedova “Yuqumli kasalliklar va infektion nazorat” Turon nashriyoti 2022 yil.
5. R.E.Giyasova, S.A.Mirzaeva ”Sestrinskiy uxod za patsientami s infekcionnymi zabolevaniyami” Tashkent, “Ilm Ziyo”, 2015 g.

<sup>2</sup> E.I.Musaboyev, A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya”